

**9 may – “Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayrami munosabati bilan o’tkaziladigan tantanada viloyat hokimi O.Ashurmatovning tabrik nutqi**

2016 yil 9 may

Guliston shahri

**Assalomu alaykum,  
aziz otaxonlar va onaxonlar!  
Qadrli urush va mehnat faxriylari!**

Bugun barcha vatandoshlarimiz, butun xalqimiz Xotira va qadrlash kuni deb nom olgan ulug’ ayyomni, fashizm ustidan qozonilgan G’alabaning 71-yilligini keng nishonlamoqda.

Mana shu ulug’ ayyom bilan Siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun Sirdaryo xalqini **samimiy tabriklayman!**

Shu kunlarda barchamiz o’z insoniy burchimizni ado etib, bugungi tinch hayotimiz uchun, musaffo osmonimiz uchun jang maydonlarida jon berib urushdan qaytmaganlarni eslaymiz, ularning arvohlarini shod etib, o’chmas xotirasi oldida bosh egamiz.

Muhtaram Yurtboshimiz kuni kecha xalqimizga yo’llagan bayram tabriklarida ta’kidlaganlaridek: **“Xotira va qadrlash**

**bayramining mazmun-mohiyati boshqa bayramlardan inson qalbi va ongiga, xotira esa kecha va bugun o'rtasida ko'prik bo'la olishi bilan, eng muhimi mehr-oqibat degan tushunchalarning xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotida chuqur singib borayotgani bilan ahamiyatlidir”.**

Xotira va qadrlash deganda biz, avvalo, o'zimizni inson sifatida anglashni, odamiylik fazilatlarimizni ulug'lashni nazarda tutamiz.

Bu kunda ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini xotirlash bilan birga, bugun safimizda yurgan nuroniy keksalarimizni qadrlash va e'zozlash hamdir.

Xotira, qadr degan tushunchalar azal-azaldan ma'naviy hayotimizning ajralmas bir qismi bo'lib kelgan.

Davlatimiz rahbarining **“O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”** degan so'zlari hayot haqiqatiga aylangani, bu haqiqat kecha bilan bugunni solishtirish, tarixda ko'p bora o'z isbotini topgan.

**Qadrli nuroniy otaxonlar va onaxonlar!**

Muhtaram yurtboshimiz tomonlaridan, Siz kabi keksalarimizga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani yuksak hurmat va ehtirom belgisidir.

Bugun mana shu hayotimizning go'zal va nurafshon, yurtimizning ozod va obod bo'lishida shu erda to'plangan Siz nuroniy keksalarimizning **beqiyos hissangiz bor.**

Ayni vaqtda mehnat nafaqasida bo'lishingizga qaramay, yoshlarimizga boy hayotiy tajribangizni tinmay o'rgatib, ularga bugungi tinch osuda hayotimizni qadriga etib shukronalik tuyg'usi bilan yashashlariga undamoqdasiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni ishtirokchisi sifatida xalqimizga manzur bo'ladigan ezgu ishlarni amalga oshirilishida yaqindan yordam bermoqdasiz.

Biz Sizlarni nafaqat keksa nuroniy, mehnat faxriysi balki kecha bilan bugunni solishtiruvchi, jonkuyar fidoiy inson sifatida yaxshi bilamiz va qadrlaymiz.

Bugungi Xotira va qadrlash kunida men Siz, aziz oddiy zahmatkash nuroniy keksalarimizga, front ortida xizmat qilgan faxriylarimizga

**barcha sirdaryoliklar nomidan yana bir bor minnaddorchilik bildiraman.**

Shu o'rinda, ham diniy ham dunyoviy jihatdan o'z isbotini topgan, hayot xaqiqatiga aylangan, ya'ni bugun biz nuroniy keksalarimizni qancha qadrlasak, ularni e'zozlasak, oqibat natija ham huddi shunday bo'lishini har bir inson qalbi va ongi bilan anglashi kerak ekanligida chuqur ma'no bor.

Vaqt o'tadi, zamonlar o'tadi, lekin uzoqni ko'zlab, hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan talablarni inobatga olib, odamiylik fazilatlarini ulug'lash, umuman, Vatan uchun, elu yurt uchun xizmat qilgan insonlarning nomlarini saqlash, inson xotirasini e'zozlash yo'lida qilingan bunday savobli ishlar, hech qachon unutilmaydi.

### **Qadrli tadbir ishtirokchilari!**

Butun dunyo xalqlarining ezgu orzusi, xohish-irodasi bitta. U ham bo'lsa, urush hech qachon, hech qanday shaklda qaytarilmasin, degan talabdir. Bunday istak, bunday maqsad jahondagi barcha xalqlarning manfaatlariga to'g'ri keladi. Chunki, hech qaysi xalq urushni xohlamaydi.

Muhtaram Yurtboshimiz siyosati, xalqimizning hohish irodasi bilan aytganda **“...o'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak”**. Faqat tinchlik va osoyishtalik bo'lgan, mehr-oqibat, o'zaro hurmat hukm surayotgan davlatda farovon va baxtli hayot qurish mumkin.

### **Aziz otaxonlar va onaxonlar!**

Siz azizlarni bugungi ulug' bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga uzoq umr, sihat-salomatlik, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

**Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo,  
Yurtboshimiz hamisha omon bo'lsinlar!**